“O‘zagrolizing” AJning
2025-yil 20-fevraldagi 12-sonli
Boshqaruv majlis bayoniga
**1-ILOVA**

# “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil I yarim yillik uchun mo‘ljallangan ISH REJASI

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|
| **I. Ustuvor vazifa - Jamiyatning 2025-yil I yarim yillikda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari.** | | | |
| 1.1 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi **“O‘zbekiston–2030”** strategiyasini **“Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-16-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashkil etish hamda vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari |
| 1.2 | Qonunchilik hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, va Farmoyishlari hamda Davlat rahbari raisligida o‘tkazilgan, shuningdek, Respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan yig‘ilish bayonlarida bajarilishi lozim bo‘lgan tegishli nazorat bandlarini so‘zsiz va sifatli bajarilishini ta’minlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari |
| 1.3 | O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda kengaytirish bo‘yicha tasdiqlangan **“Yo‘l xaritalari”da** nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| | **II. Ustuvor vazifa - Jamiyatning 2025-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalari va takliflari.** | | |
| 2.1 | 2025-yil I yarim yillikda **450 mlrd.** so'm lizing to'lovlari undirilishini ta'minlash. **Shundan:**<br>- **200,0 mlrd.** so'm paxta imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan;<br>- **200,0 mlrd.** so'm g'alla imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan;<br>- **50,0 mlrd.** so'm erkin mablag'lar hisobidan undirish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,**<br>E.Qurbonov, B.Ganiyev<br>hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.2 | Lizing loyihalarini moliyalashtirish maqsadida mahalliy tijorat banklaridan **50 mlrd.** so'm kredit mablag'larini jalb qilish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,**<br>E.Qurbonov, B.Ganiyev |
| 2.3 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 20-iyundagi PQ-198-son qaroriga asosan, Jahon banki tomonidan **50,0 mln. AQSH** dollari miqdorida kredit mablag'larini jalb qilish. | I yarim yillikda | **A. Nasirdinov,**<br>E.Qurbonov, B.Ganiyev,<br>Sh.Qodirova |
| 2.4 | Lizing loyihalarini moliyalashtirish uchun, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi **JICA** bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikalarini xarid qilish maqsadida, **6,0 mln. AQSH** dollari miqdorida kredit mablag'i jalb qilish. | I yarim yillikda | **A. Nasirdinov,**<br>E.Qurbonov, B.Ganiyev,<br>Sh.Qodirova |
| 2.5 | Respublika qishloq xo'jaligiga **2 528 dona** turli rusumdagi qishloq xo'jaligi texnika va agregatlarni lizing asosida yetkazib berish. **Shundan:**<br>- **98 dona** traktorlar;<br>- **46 dona** lazerli yer tekichlagichlar;<br>- **100 dona** g'alla o'rish kombaynlari;<br>- **9 dona** paxta terish mashinalari;<br>- **300 dona** kultivatorlar;<br>- **273 dona** ekish texnikalari;<br>- **1 702 dona** boshqa texnikalar. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,**<br>N.Meliboyev, E.Qurbonov,<br>Sh.Qodirova, E.Allamov,<br>hududiy filiallar rahbarlari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 2.6 | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 28-noyabr kuni meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan **51-sonli** topshiriqlar **7.4-bandi** ijrosini ta'minlash maqsadida **Sayxunobod tajribasi** asosida joylarda tushuntirish ishlarini olib borish yuzasidan ko'rgazmali seminar tashkil etish hamda mahallarga imtiyozli shartlar asosida **minitexnikalarni** yetkazib berish choralarini ko'rish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** N.Meliboyev, I.Odiljonov, E.Qurbonov, E.Allamov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.7 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" **PQ-431-sonli qaror** mazmun-mohiyatini joylarda faoliyat ko'rsatuvchi fermerlar, klasterlar va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga tushuntirish ishlarini olib borish yuzasidan doimiy **ko'rgazmali seminarlar** tashkil etish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** N.Meliboyev, I.Odiljonov, E.Allamov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.8 | Lizingga yetkazib berilgan hamda yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlarining barchasini joriy yil I yarim yillikda **monitoring ko'rigidan** o'tkazish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** N.Meliboyev, I.Odiljonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.9 | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 7-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan **48-sonli t**opshiriqlar **12.v-bandi** ijrosini ta'minlash maqsadida lazerli yer tekislagichlarni yetkazib berish choralarini ko'rish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** N.Meliboyev, E.Qurbonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.10 | Lizing xizmatlarini ko'rsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida, Jamiyat tomonidan lizingga yetkazib berilgan hamda yetkazib berilayotgan o'ziyurar qishloq xo'jaligi texnikalarning doimiy soz holatda ishlashini nazorat qilish, to'lov intizomini mustahkamlash va | 2025-yil Aprel-may | **A.Nasirdinov,** I.Odiljonov, T.Eshonkulov, hududiy filiallar rahbarlari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| | qarzdor lizing oluvchilarning texnikalarini masofadan o'chirish, ularning onlayn monitoringini olib borish maqsadida **"GPS"** qurilmalari bilan jihozlash ishlarini yakuniga yetkazish. | | |
| 2.11 | "Lizing obyektlarini lizingga berish jarayonlarini raqamlashtirish" axborot tizimining texnik topshirig'i va konkurs hujjatlarini ishlab chiqish, **"eng yaxshi taklifni tanlash"** davlat xaridi orqali xizmatni sotib olish ishlarini tashkil etish.. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** T.Eshonkulov, X.Xamdamov |
| 2.12 | Jamiyat Boshqaruv raisi va o'rinbosarining 2025-yil uchun mo'ljallangan faoliyatining eng muhim maqsadli samaradorlik ko'rsatkichlari **(KPI)** ijrosini sifatli ta'minlash choralarini ko'rish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.13 | Lizing to'lovlaridan xosil bo'lgan qarzdorliklarni hududiy viloyat filiallar tomonidan sud mexanizmi orqali undirilish *(talabnomalar yuborish, iqtisodiy sudlarga da'vo arizalar kiritish, sud qarorlari asosida olingan ijro varaqalarni majburiy ijro organlariga taqdim etish)ni* ta'minlash. Jamiyat foydasiga chiqarilgan qarorlar bo'yicha Majburiy ijro organlari bilan hamkorlikda qarzdorlikni undirish choralarini ko'rish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** E.Allamov, Sh.Xasanov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.14 | Hududiy filiallarda lizing to'lovlaridan vujudga kelgan debitor qarzdorliklarni undirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni joyiga chiqqan holda o'rganish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** E.Allamov, Sh.Xasanov, S.Jumagulov |
| 2.15 | Xodimlar ish sharoitlarini yaxshilash hamda ularga qulayliklar yaratish maqsadida, markaziy apparat va hududiy filiallarida mavjud eskirgan ish anjom jihozlarini bosqichma-bosqich yangilariga almashtirish hamda kompyuter va orgtexnika jihozlari bilan ta'minlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** X.Xamdamov, Sh.Qodirova, hududiy filiallar rahbarlari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 2.16 | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hukumati tizimidagi davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ijro intizomiga mas'ul tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini lavozimlarga tayinlashni va ularning faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 31-martdagi **171-son** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Jamiyatning hududiy viloyat filial ish yurituvchilari uchun **o'quv seminar** o'tkazish. | I yarim yillikda | **A. Nasirdinov,** D.Kurbanbayev, S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari |
| **III. Ustuvor vazifa – Jamiyat faoliyati yuzasidan ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash.** | | | |
| 3.1 | Jamiyat faoliyati yuzasidan hamda agrar sohani lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida **matbuot anjumani yoki brifing** o'tkazish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** Boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 3.2 | Jamiyatning mijozlari va ularning ish faoliyatlarida lizing obyektlaridan foydalanish samaradorligi hamda ish natijalari bo'yicha **interaktiv intervyular** tashkil etish va materiallarni jamiyat mijozlariga video shaklida yetkazish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** T.Eshonqulov |
| 3.3 | O'zbekiston Respublikasining **"Manfatlar to'qnashuvi"** to'g'risida 2024-yil 5-iyundagi **O'RQ–931-son** Qonuniga asosan Jamiyatning amaldagi ichki normativ-huquqiy hujjatlariga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** M.Abdullayev, E.Allamov, S.Qurbanov, X.Xamdamov |
| **IV. Ustuvor vazifa - Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada rivojlantirish hamda Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish.** | | | |
| 4.1 | "O'zagrolizing" AJ tizimida taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar ishtirokida **"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!"** degan ustuvor g'oya asosida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, ochiq muloqot va suhbatlar, madaniy tadbirlarni o'tkazish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** M.Mirabdullayev, S.Qurbanov |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| 4.2 | **21-mart** – "Navro'z" umummilliy bayram munosabati bilan **"An'ana, urf-odat va qadriyat"** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy hamda xayriya tadbirlarini tashkil qilish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** M.Mirabdullayev, X.Xamdamov, A.Abdukarimov |
| 4.3 | **9-aprel** – Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan **"Biz kim, Mulki Turon!"** shiori ostida Jamiyat va filiallar xodimlari o'rtasida jamoaviy sport turlari bo'yicha **"Rahbar kubogi"** musobaqalarni va intellektual o'yinlar tashkil etish, g'oliblarni esdalik sovg'alari bilan taqdirlash hamda sport tadbirlarini Jamiyat rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritish. | 2025-yil aprel | **A.Nasirdinov,** M.Mirabdullayev, S.Qurbanov, A.Abdukarimov, T.Eshonkulov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 4.4 | **9-may** – "Xotira va qadrlash" kuni munosabati bilan **"E'tibor va g'amxo'rlik – insoniy burch"** loyihasi asosida keksalar, nuroniylar, faxriylar, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam ko'rsatishga qaratilgan xayriya tadbirlarini tashkil etish | 2025-yil may | **A.Nasirdinov,** M.Mirabdullayev, S.Qurbanov X.Xamdamov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 4.5 | Jamiyat rahbar va xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ma'naviyatini oshirish maqsadida teatr va muzeylarga tashrifini tizimli yo'lga qo'yish, shuningdek, kitob jovonlarini zamonaviy, tarixiy, adabiy va ilmiy ommabop kitoblar bilan to'ldirish, barcha xodimlarni **"Mutolaa"** platformasiga a'zo qilish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** M.Mirabdullayev, S.Qurbanov hududiy filiallar rahbarlari |
| 4.6 | "O'zagrolizing" AJ, Qoraqalpog'iston Respublikasi va hududiy viloyat filiallarining yangi tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** S.Qurbanov, A.Norboyev, E.Allamov |
| 4.7 | Rahbar xodimlar va mutaxassislar malakasini oshirish, qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborish va seminar-treninglar uyushtirish orqali ularning kasb mahorati, bilim va ko'nikmalarini oshirib borish. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Ijro muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|
| **V. Ustuvor vazifa - O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari va Hukumat qarorlarining bajarilishini maqsadli o'rganish.** | | | |
| 5.1 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda **"Ijro.gov.uz"** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablari asosida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov |
| 5.2 | O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, farmoyishi hamda Hukumat qarorlari, farmoyishlari, shuningdek, ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijro holatini hududiy filiallarida maqsadli o'rganish. | Tasdiqlangan reja jadvaliga asosan | **A.Nasirdinov,** D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov |
| 5.3 | Jamiyatda ish yuritish hamda ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnoma asosida, Jamiyatning boshqarma va bo'limlar tomonidan hujjatlarni tasdiqlangan yig'majildlar nomenklaturasi asosida idoraviy arxivga topshirishni ta'minlash. | I yarim yillikda | **A.Nasirdinov,** D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov Boshqarma va bo'lim boshliqlari |